

YOG'OCHDAN BUYUMLAR TAYYORLASH ASOSIDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Ibodov Alohiddin Anvar o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(texnologik ta'lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirish va mehnatga ijodiy munosabatini shakllantirish, fan-texnika taraqqiyotini jahon talablari darajasiga ko'tarish, mahsulot sifatini tubdan yaxshilash, ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlay oladigan yosh avlodni tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassislarda ijodiy faoliyat asoslariga oid bilim, ko'nikmalarni shakllantirish orqali zamonaviy ishlab chiqarishiga xos texnik, texnologik-konstruktorlik fazilatlarini shakllantirish va ishlab chiqarish faoliyati asoslarining puxta egallanishiga erishiladi. Ushbu maqolada yog'ochdan buyumlar tayyorlash asnosida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yog'ochdan yasaladigan buyumlar, ijodkorlik, qobiliyatlar, rivojlantirish, ijod tushunchasi, dastgoh, yog'ochga birlamchi ishlov berish.

Аннотация: Одной из важнейших задач является развитие у студентов технического мышления и творческого отношения к работе, поднятие научно-технического развития до уровня мировых требований, коренное повышение качества продукции, воспитание молодого поколения, способного обеспечить высокую эффективность производства. Путем формирования у будущих специалистов знаний и умений, связанных с основами творческой деятельности, достигается формирование технических, технологических и конструктивных качеств, характерных для современного производства, глубокое овладение основами производственной деятельности. В данной статье раскрываются возможности развития творческих способностей учащихся при изготовлении изделий из дерева.

Ключевые слова: деревообработка, творчество, навыки, развитие, понятие творчества, станок, первичная деревообработка.

Annotation: One of the most important tasks is to develop students' technical thinking and creative attitude to work, raise scientific and technical progress to the level of world requirements, fundamentally improve product quality, and educate the young generation who can ensure high production efficiency. Through the formation of knowledge and skills related to the basics of creative activity in future specialists, the formation of technical-technological and constructive qualities characteristic of modern production and thorough mastering of the basics of production activity are achieved. This article reveals the possibilities of developing students' creative abilities in making wood products.

Key words: woodworking, creativity, skill, development, concept of creativity, machine, primary woodworking.

Kirish

Odatda, ijod tushunchisi ma'lum bir istedodli odamlar tomonidan buyuk san'at asarlari, yangi mashinalar, dastgohlar va hokazolarni yaratishini anlatadi. Lekin ijod faqat buyuk asarlar yaratishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki kishining fikr yuritishi, biror tadbirni o'ylab topishi, ozgina bo'lsa-da, qandaydir yangilik yaratishi kabi tushunchalarni ham qamrab oladi. Shu bois ijod jarayoniga tasodif sifatida emas, balki muayyan sharoit va imkoniyatlar hamda qonuniyatlar asosida amalga oshuvchi muhim jarayon sifatida qarash lozim.

O'quvchining ijodkorligi, avvalo, uning har qanday ta'limiy faoliyat jarayonidagi: o'ziga xos usullar bilan masala yechish, mashq bajarish, insho yozish, tajriba ishlarini amalga oshirishi jarayonida mustaqil fikrlashida namoyon bo'lishi lozim. O'quvchining ijodi uning olgan bilimni hayotda ko'rgan dalil va hodisalarga bog'lay olishi, ularni to'g'ri baholab, dastlabki Ma'lumotlarni tahlil va sintez qila bilishidir. Har qanday ijod borliqni rad etish emas, balki borliqqa to'laroq kirib borishdir.

O'qitishga individual yondashuv ta'lim jarayonining muhim talabidir. Ta'limga individual yondashuv faqat mashq ishlarida emas, balki o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi materialni o'tish, mustahkamlash va takrorlashlarda, uy vazifasini berish va darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda ham amalga oshirilishi zarur.

Bu esa o'quvchilar ijodkorlik mahorat va qobiliyatlarining o'sishida yana bir o'ziga xos eshikni ochib beradi. Shaxs sifatlarining shakllanishida oila, atrof-muhit, jamiyat katta rol o'ynaydi. Ota-onaning mehri, atrof-dagilarning e'tibori, ularning qo'llabquvvatlashlari bolani mustaqil fikrlashga va ijodiy fikrlashga bo'lgan ishonchini uyg'otadi.

Ma'naviy-ijodiy usullar shu tariqa o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda eng asosiy rolg' o'ynaydi va ushbu usul 3 bosqichda amalga oshiriladi:

- a) o'quvchilarda bilishga qiziqishni uyg'ota bilish;
- b) o'quvchilarning egallagan bilim va tajribasiga asoslangan holda masala qo'yish hamda ularga tayanib, masalalarni tahlil qilish;
- v) o'rganish kerak bo'lgan muammo ustida mustaqil fikr yuritib, xulosa chiqarishga erishish. Yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirish jarayonida talabalar, insonning boy xazinasini uning o'zida yashiringanligini anglab yetadilar.

Buning uchun o'qituvchi ulardagi qiziqishni, yashiringan iste'dodni anglay bilishi kerak. Ilm olish, aqlni peshlash, o'z ustida ishlash, hikmatlarni bilish, kamtarlik, mahrifatli bo'lish kabi fazilatlariga faqat mehnat qilish va bilim olish, o'qib - o'rganish, hayotni kuzatish orqali erishish mumkin

Ma'lumki, faoliyat - yakuniy natijada insonning aniq mahsulot yaratadigan jarayondir. Faoliyat reproduktiv va ijodiy bo'lishi mumkin. Reprodukativ faoliyat - bu batafsil ishlab chiqilgan algoritm bo'yicha bajariladigan jarayon va bu natijada faoliyat

subyekt (subyektiv yangilik) uchun ham, boshqa kishilar uchun ham (obyektiv yangilik) yangilik bo'lmagan mahsulot yaratiladi. Bundan farqli ravishda ijodkorlik faoliyatining hech bir turi uchun ularni bajarishning batafsil algoritmi yaratilishi mumkin emas, biroq ijodkorlik faoliyatining ko'pgina turlari uchun umumiy algoritm allaqachon yaratilgan, masalan: insho yozish, kiyimlarni moslashtirish, texnika bo'yicha ijodkorlik masalalarini yechish va boshqalar.

Ijodkorlik faoliyati natijasida subyektiv yoki obyektiv yangilikka ega bo'lgan mahsulot yaratiladi. Siz nima deb o'ylaysiz, hayotiy muvaffaqiyatga erishish borasida shaxs uchun nima muhim manba (vosita) aniqlovchi bo'lib hisoblanadi: mablag', ota-onalar mavqei, aloqalar.

Ma'lumoti darajasi, tillarni bilishi yoki boshqa yana nimadir? Ana shu aynan nimadir shaxsning ijodkorlik faoliyati metodlari va texnologiyalarini egallash darajasining aniqlovchisi bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagi shartlarning insonda mavjud bo'lishi kasbiy martabada ma'lum darajani egallash imkonini beradigan ajoyib bajaruvchi bo'lish imkonini beradi, biroq hayotiy muvaffaqiyat zinapoyasidan ko'tarilishni ijodkorlik faoliyatisiz amalga oshirish mumkin emas.

Aniqrog'i, inson hal qila olmaydigan birinchi muhim muammogacha mumkin. Bunga ishonch hosil qilish uchun odamlarni qat'iy retseptlar bilan davolagan vrach va bir bemorda nostandart holni, yoki standart gruntlar uchun mo'ljallangan binoni loyihalagan injenerni, loyiha bo'lsa, juda bo'sh grunt uchun buyurtma qilinganligini tasavvur qiling. Va bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Shuning uchun ijodkorlik faoliyati shaxsning asosiy intellektual kapitali bo'lib hisoblanadi, aynan u har bir insonning kasbidan qat'iy nazar hayotdagi muvaffaqiyati va mavqeyini belgilab beradi. Ya'ni ijodkorlik faoliyati – bu hech qanaqangi pulga sotib olib bo'lmaydigan, faqat o'rganish mumkin bo'lgan faoliyatdir.

Ijodkorlik faoliyati jarayonida insondagi ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi. Nima deb o'ylaysiz, ijodiy fikrlash nima? Agar shaxs quyidagi mantiqiy operatsiyalar: tizimlar va ularning elementlarini kombinatsiyalash, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash, tadqiqot operatsiyalarini bajarishga qodir bo'lsa, ijodiy fikrlay olishi psixologiyada isbotlangan. O'quvchilarda ijodiy fikrlashning rivojlanishi ular yordamida har bir guruhda mantiqiy layoqatlar shakllanadigan va rivojlanadigan ijodkorlik masalalarini yechish metodlariga o'qitish jarayonida amalga oshiriladi.

Biroq ijodkorlik masalalari nima? Ijodkorlik masalalari – bu bajarish uchun o'rganilgan qoidalarni o'zgartirish yoki mustaqil ravishda yangi qoidalar tuzish talab etiladigan va natijada subyektiv yoki obyektiv yangi tizimlar – Ma'lumot, konstruksiyalar, moddalar, hodisalar, sanhat asarlari yaratiladigan masala.

Ijodkorlik nazariyasida ijodkorlik masalasi tushunchasi bilan bir qatorda tadqiqotchilik masalasi ham mavjud. Tadqiqotchilik masalasi – bu hal qilish uchun bir necha tadqiqotchilik operatsiyalarini bajarish zarur bo'lgan ijodkorlik masalasi. Shunday qilib, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun alohida ijodkorlik masalalari emas,

balki bajarish jarayonida o'quvchilarda yuqorida ko'rsatilgan guruhlardagi mantiqiy operatsiyalar shakllanadigan va rivojlanadigan ijodkorlik masalalari tizimi zarur.

Ijodkorlik masalalari tizimi har bir mavzu, har bir maktab darsligida o'quv faoliyatining asosi bo'lishi kerak. Ijodkorlik masalalari tizimini mantiqiy operatsiya turlari va guruhlarini tashkil etadi.

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan ayrim preslangan yog'och materiallar qurilishlarda, mebel ishlab chiqarish korxonalarida ham keng ishlatilmoqda. Yog'och materiallardan turli buyumlar ishlab chiqarish uchun eng avvalo, tegishli materialdan turli va tejamkorlik bilan foydalanish, tayyorlangan buyumning sifatiga e'tibor berish, ishlatiladigan yog'och materialning turini, tuzilishini, xususiyatini, unga ishlov berish texnologiyasini bilish juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun har qanday yog'och materiallar texnikada asosiy qirqim (ko'ndalang, radial, tangel-tal) bo'yicha tekshirilib, ma'lum sohada ishlatish uchun tavsiya qilinadi.

Texnologik jarayonning har bir elementini bajarish tegishli mehnat usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Mehnat usullari o'quvchining ish o'rnidagi turish holatlari asboblari ushlashi va bajaradigan mehnat harakatlari bilan bog'liqdir. Texnologik kartalarni tuzish va ulardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi, texnik tafakkurini rivojlantiradi va mustaqil ishlashga o'rganishida yordam beradi.

Yog'ochdan buyum tayyorlashning oxirgi bosqichi pardoqlashdan iborat. Pardoqlash yog'och buyumining sirtini silliqlash, unga turli usulda bezaklar ishlash bilan chiroyli ko'rinish hosil qilish hamda laklash va bo'yash orqali yog'ochni tez buzilishdan saqlaydigan himoya qatlami qilishdan iborat.

O'quvchilarga yog'och va metallning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlarni, ularni rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardoqlash ishlari qo'l va elektr asboblarning tuzilish, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanishni hamda mustaqil O'zbekiston kelajagi bo'lgan har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat. Qolaversa o'quvchilarga yog'och va metallarni rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardoqlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l va elektr asboblarning tuzilishini, ishlashini elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlarni mashinalar elementlarini, texnologik xaritalarni tuzishni, dizayn talablari darajasidagi ro'zg'orbop va xaridorgir buyumlarni tayyorlashni, elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlashni, uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallarini, mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilishni, o'lchash va taqqoslash texnologiyalarini mehnatni ilmiy tashkil etishni o'rgatishdan iborat.

Insonlarning o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida iqtisodiy ne'matlar yaratish jarayoni ishlab chiqarish deb yuritiladi. Iqtisodchilar iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni - ishlab chiqaruvchilar, ularni iste'mol qiluvchilarni esa iste'molchilar deb ataydi. Ishlab chiqaruvchilar odatda. moddiy va nomoddiy ishlab

chiqarish sohasiga bo'linadi. Moddiy sohada moddiy ko'rinishdagi mahsulotlar. tovarlar ishlab chiqariladi.

Xulosa: Moddiy ishlab chiqarish sohasiga sanoatdagi zavod va fabrikalarni. qishloq xo'jaligidagi fermer va dehqon xo'jaliklarini misol qilib keltirish mumkin. Moddiy ishlab chiqarish sohasiga moddiy boyliklarni ishlab chiqaradigan yoki iste'molchilarga yetkazib beradigan hamma tarmoqlar kiradi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilishda jamiyat uchun zarur ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, materiallar, inshoot va h.k) hamda iste'mol mollari (oziq-ovqat mahsulotlari. kiyimlar, poyabzal va hokazolar) yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xayrulla D., Saidjon U., Azamat M. DEVELOPMENT OF LIGHTING CONTROL SOFTWARE FOR "SMART CLASS" //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-6 (86). – С. 18-21.

2. Sunnatula o'gli M. A. et al. TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI //World scientific research journal. – 2022. – Т. 4. – №. 2. – С. 28-33.

3. Yuldoshev, S., Savriev, S., Murtaozoyev, A., & Khojiev, S. (2022). NUMERICAL SIMULATION OF THREE-DIMENSIONAL TURBULENT JETS OF REACTING GASES. *Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 2(6), 73-82.

4. Муртазоев А. С. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 54-58.

5. Тохиров У. "Тикувчилик ва дизайн" бизнес лойихаси - укувчилар тадбиркорлик куникмаларини шакллантириш омили сифатида "Таълим ва технология": Илмий-услубий маколалар туплами. -Тошкент., 2012. Кс2 (17).-Б. 460-462.

6. Жўраев А. Р., Сайфуллаева Д. А., Бахронова Ш. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ҚИЛИНАДИГАН ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 169-176.